

O'ZBEK TILIDA MA'NODOSH SO'ZLAR VA ULARNING O'QITILISHI

Tojiboyeva Shodiya Obitjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) ning nazariy asoslari va o'rta ta'lim maktablarida o'qitish masalalari yoritilgan. Sinonimlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, darsliklarda aks etishi hamda metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada yangi metodlar orqali mavzuni o'rgatishga xizmat qiluvchi tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'nodosh so'zlar, metodik yondashuvlar, sinonimlar, sinonimik qator, dominanta, "Mevali daraxt" etodi, "Mozaika" metodi.

Ma'nodosh so'zlar (sinonimiya) – grekcha *synonymos* yoki *synonymon* “bir nomli” degan ma'noni bildirib, shakli har xil, ammo ma'nosini bir-biriga yaqin so'zlardir. Shuningdek, A. Hojiyevning “O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati”da sinonimlarga quyidagicha ta'rif beriladi: “Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosini bir xil (umumiyligi) bo'lgan qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsiyal bo'yog'i, qo'llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir”.¹

Ikki yoki undan ortiq so'zning sinonimligi ularda hammasi uchun umumiyligi (bir xil) bo'lgan ma'noning borligiga ko'radir. Biror so'zning boshqa so'z yoki so'zlarga sinonimligi har vaqt konkret bir birlashtiruvchi ma'no bilan bo'ladi. Birlashtiruvchi ma'no o'zaro sinonim bo'lgan so'zlarning hammasida bo'ladi. Bu sinonimlarning birlik tomoni, birlik xususiyatidir. Birlashtiruvchi ma'no (ma'noda bir xillik) bo'lmasa, sinonimlik haqida gapirish mumkin emas. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'zlar (ma'nosida birlik

¹ A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. - Toshkent. 1974.

bo‘lgan so‘zlar) birlikda **sinonimik qatorni** hosil etadi: *o ‘yin – raqs; yanglish – xato – chatoq – g ‘alat – noto ‘g ‘ri.*²

Sinonimik qatorda ma’no hajmi boshqalarnikiga nisbatan keng bo‘lgan so‘z **dominanta** deyiladi. Masalan, *jilmaymoq, irjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq, tirjaymoq* sinonimik qatorida *jilmaymoq* so‘zi dominanta hisoblanadi.

Sinonimlar nutqda quyidagi maqsadlarda qo‘llanadi, ayrim o‘rinlarda hatto zarur hisoblanadi:

- fikrni yanada aniqroq va to‘g‘ri ifodalash (qiyos uchun: chet el va xorij)da;
- hissiy-emotsional rang berish, fikrni yorqinroq ifodalashda;
- tavtologiya (takror – bir gapda muayyan so‘zning takror qo‘llanishi)dan saqlanish maqsadida;
- matndagi qo‘shti jumlalarni bog‘lash maqsadida sinonim so‘zlardan unumli foydalilanildi.

Sinonim so‘zlar nutqning jozibali va ta’sirchan bo‘lishiga yordam beradi. Ular bir so‘z turkumi doirasida bo‘ladi: kuch – quvvat – mador – majol – darmon (ot so‘z turkumi).

O‘zbek tilining boshlang‘ich va o‘rta sinf darsliklarida ma’nodosh so‘zlar mavzusi muntazam ravishda yoritiladi. 4-sinf darsliklarida mavzu oddiy misollar bilan tushuntirilsa, yuqori sinflarda leksik - semantik xususiyatlari o‘rgatiladi. Masalan ona tili darsliklarida quyidagi topshiriqlar berilgan:

- Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qoyib, daftarga ko‘chiring.
*1. Dehqonning (boyligi, ganjinasi, xazinasi) – yer, kaliti – ter. 2. Yer ichida (tila, oltin, zar) bor, qaziy bersang topasan. 3. Yerga qarasang (bo ‘ston, bog‘, guliston) bo ‘lar, (Ko ‘ngling, diling, qalbing) ochilib, chog ‘ bo ‘lar.*³
- “Falsafa toshini qidirib” matnidan olingan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlearning ma’nodoshlarini yozing.

1. Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan.

² H.Ne’matov. R.Rasulov. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent. O‘qituvchi. 1995.

³ Ona tili [Matn]: 5-sinf uchun darslik / Z.Xolmanova [va boshq.]. – G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2020.

2. Juda boy bo'lishni xohlagan **podsholar** esa olimlarga afsonaviy toshni topishni buyurgan.

3. Masalan, 1602-yilda bolonyalik Kassiarolo ismli kosib va alkemyogar tog'dan hajmiga nisbatan juda og'ir, ko'rinishi **g'alati** bir toshni topib oladi.

4. Kassiarolo toshni **oltinga** aylantirish maqsadida uni ko'mir bilan eritadi va suyuq metallga turli narsalarni qo'shib ko'radi.

5. Alkemyogar umrida duch kelmagan, **g'aroyib** metallni kashf etganini bilardi.⁴

- "Muhabbat nima?" matnidan quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping.

Notanish so'zlar ma'nosini lug'atdan ko'rib oling. (*Banogoh, qo'llanmoq, nolimoq, ilalabad, qator, ko'ks, ne, tong, haqiqiy, tuzukkina, iztirob, kirib kelmoq*).⁵

Ushbu topshiriqlar orqali o'quvchilarning lug'at boyligi kengayadi, kontekstdan kelib chiqib, so'zlarni to'g'ri tanlashga o'rganadi, har bir gapga mos keladigan so'zni tanlashda o'quvchi fikrlaydi va mantiqan to'g'ri qaror chiqaradi. Matnni daftarga ko'chirish bilan esa uning yozma savodxonligi ham oshadi.

Bu topshiriqlarga qo'shimcha sifatida bir nechta topshiriqlar tavsiya etmoqchiman.

 6-7-sinflar uchun ijodiy topshiriq. "Rasm asosida hikoya tuzish".

Biror manzara tasviri beriladi (bo'g', oila davrasi, tabiat). O'quvchilar rasmda ko'rgan tasviri asosida sinonim so'zlardan foydalangan holda 5-8 ta gapdan iborat matn tuzishadi. Matn uslubiy va mantiqiy jihatdan ham to'g'ri tuzilgan bo'lishi lozim.

 9-10-sinflar uchun. "Qisqa matnni sinonimlar orqali boyitish" topshirig'i.

O'quvchilarga istalgan mavzudagi kichik matn (badiiy matn yoki she'rlar bo'lishi ham mumkin) beriladi. Ular sinonim so'zlardan foydalangan holda matnni uslubiy jihatdan boyitib, qayta tahrir qilishadi.

Bu topshiriqlarni berishdan maqsad – o'quvchilarda so'z boyligini kengaytirish, ijodiy fikrlash, vaziyatga mos chiroyli so'z tanlash ko'nikmalarini shakllantirish, matn tahlil qila olishga undash hamda sinonimlarni o'rgatishdan iborat.

⁴ Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022.–224 b.

⁵ Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. –224 b.

Ma'nodosh so'zlarni o'rgatishda interaktiv va interfaol metodlardan foydalanish ham juda samarali deb o'layman. "Mevali daraxt", "Mozaika" kabi interaktiv metodlardan ushbu mavzuda foydalanish darsni qiziqarli va yanada tushunarliroq bo'lishini ta'minlaydi.

"Mevali daraxt" metodi

Kerakli jihozlar: daraxt rasmi, rangli stikerlar.

Qo'llash tartibi: O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Ikkita daraxt rasmi kerak bo'ladi, xohlasangiz doskaga chizib qo'ying.

Guruhlardagi har bir o'quvchilarga stikerlar berib chiqasiz. Doskaga mavzuni yozib bo'lgandan so'ng o'quvchilarga topshiriq sharti tushuntiriladi. Ular qo'llaridagi stikerchalarga bittadan ma'nodosh so'zlar juftligini yozadi va o'z daraxtiga yopishtirib qo'yadi. Berilgan vaqt tugab, daraxtdagi stikerlar to'g'ri yozilganini tekshirib, sanab chiqasiz. Ko'p stiker yopishtira olgan guruh g'olib bo'ladi va rag'batlantiriladi.

"Mozaika" metodi

Kerakli jihozlar: rangli qog'ozdan yasalgan biror hayvon rasmi.

Qo'llash tartibi: Istalgan hayvon rasmini yasab, ularni mozaika ko'rinishida qirqib chiqasiz. Qismlar birlashish joyiga ma'nodosh so'zlar juftligi yoziladi. Bu so'zlar bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Kichik guruhlarga tarqatiladi. Belgilangan vaqtida qaysi guruh birinchi yakunlasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Ushbu metodlar afzallikkleri:

- ✓ Rangli stikerlar tortinchoq, gapirmaydigan bolaning fikrlarini yozma nutq orqali yetkazib beradi.
- ✓ Bola dars mohiyatini yanada yaxshiroq anglaydi.
- ✓ Mustaqil fikrlash qobiliyati oshadi.
- ✓ Guruhlarda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.
- ✓ O'quvchi o'zining mustaqil shaxs ekanini va uning fikri muhimligini his qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining boyligi, ifoda imkoniyatlarining kengligi ko'p jihatdan sinonimlar bilan bog'liq. Ma'nodosh so'zlar yordamida nutq nafis, ta'sirchan va rang-barang bo'ladi. Shu sababli "Sinonimiya" mavzusini mifik tab o'quvchilariga to'g'ri va tushunarli tarzda o'rgatish ona tili ta'limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. - Toshkent. 1974.
2. H.Ne'matov. R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent. O'qituvchi. 1995.
3. Ona tili [Matn]: 5-sinf uchun darslik / Z.Xolmanova [va boshq.]. – G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2020.
4. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022.–224 b.
5. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. –224 b.